

TA’LIM-TARBIYA JARAYONINI ZAMONAVIY TASHKIL ETISHDA PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH

*Xolmatova Ziroat Anvarovna
Qo‘qon davlat pedagogika instituti
Pedagogika psixologiya kafedrasida dotsenti*

Annotatsiya. Maqolada xalqaro ta’lim muhitida zamonaviy tashxislash, korreksion metodikalarni ta’lim jarayoniga diversifikatsiya qilish, ta’lim sifatini prognostik baholash, kvalimetrik tahlil etish, monitoringini olib borish tendensiyalari, umumiy o‘rta ta’lim tizimining natijaviyligi oliy ta’lim muassasalari faoliyati samaradorligini innovatsion talablar asosida oshirib borish vazifalari, shuningdek pedagogik diagnostikadan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish asosida jamiyatning komil shaxsni tarbiyalash bilan izohlanadi.

Kalit so‘zlar: klassifikatsiya, korreksion, diversifikatsiya, monitoring, tendensiya, strategiya, innovatsiya, prognostik baholash, kvalimetrik tahlil etish, zamonaviy tashxislash.

В статье современная диагностика в международной образовательной среде, диверсификация коррекционных методов в образовательный процесс, прогностическая оценка качества образования, качественный анализ, мониторинг тенденций, эффективность системы общего среднего образования, результативность деятельности. В статье рассматривается задача повышения потребности в инновациях, а также совершенствования механизмов использования педагогической диагностики при воспитании зрелой личности общества.

Ключевые слова: классификация, коррекция, диверсификация, мониторинг, тренд, стратегия, инновация, прогностическая оценка, качественный анализ, современная диагностика.

The article contains modern diagnostics in the international educational environment, diversification of correctional methods in the educational process, predictive assessment of the quality of education, qualitative analysis, monitoring trends, the effectiveness of the general secondary education system, and performance effectiveness. The article examines the task of increasing the need for innovation, as well as improving the mechanisms for using pedagogical diagnostics in the education of a mature personality in society.

Key words: classification, correction, diversification, monitoring, trend, strategy, innovation, prognostik assessment, qualitative analysis, modern diagnostics.

Jahon ta’lim tizimini global innovatsion indeks reytingidagi o‘rnini ko‘tarish, fan, ixtirochilik va texnologiyalar transferini rivojlantirib borish, PISA, TIMSS– xalqaro baholash dasturlaridan foydalanib inson kapitali va kadrlarning kognitiv, divergent tafakkurini metakompetensiyalar asosida o‘stirish innovatsion iqtisodiyotning strategik yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan, bugungi kunda milliy va xalqaro ta’lim muhitida zamonaviy tashxislash, korreksion metodikalarni ta’lim jarayoniga diversifikatsiya qilish, ta’lim sifatini prognostik baholash, kvalimetrik tahlil etish, monitoringini olib borish tendensiyalari kuzatilmoqda.

Mamlakatimizda bu kabi amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlardan ko‘zlangan pirovard maqsadga erishishda ta’lim sohasi muhim ahamiyat kasb etib, bu jarayonda umumiy o‘rta ta’lim tizimining natijaviyligi oliy ta’lim muassasalari faoliyati samaradorligini innovatsion talablar asosida oshirib borish vazifasini qo‘yadi. Mazkur vazifani amalga oshirishda ta’lim-tarbiya jarayonini zamonaviy tashkil etishda pedagogik diagnostika imkoniyatlaridan foydalanish talab etiladi. Ta’lim-tarbiya jarayonida komil, etuk insonni gavdalanirish orqali kreativ fikrlovchi, yangiliklarga intiluvchi, irodasi mustahkam, mehnatkash, mafkurasi aniq, ma’naviyati yuksak, sof vijdonli shaxsni kamol toptirish aktual muammolar sirasiga kiradi. Chunki interfaollik asosidagi «subyekt-subyekt» munosabatini amalda qaror toptirmasdan turib, o‘quv jarayonini innovatsion tashkil etish imkoniyatiga ega bo‘lmaymiz. Bu o‘rinda pedagogik diagnostika katta ahamiyat kasb etadi va ta’lim jarayonini innovatsion joriy etishda pedagogik diagnostikadan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish asosida jamiyatning komil shaxsni tarbiyalash bilan izohlanadi.

Zamonaviy ta’lim va tarbiya jarayoni - o‘qituvchi shaxsining innovatsion maqsadga yo‘naltirilganligi, o‘z faoliyatini tashkil qilishning innovatsion shakl, usul, vosita va metodlarini egallaganligi, ta’lim mazmuniga mos ravishda innovatsion pedagogik faoliyatini tashkil qila olishini taqozo etadi.

Yoshlarning ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy, tibbiy, ma’naviy, shuningdek ta’limiy manfaatlarini muhofaza qilishga qaratilgan bir qancha qonunlar, farmonlar, qarorlar va boshqa turdagi meyoriy hujjatlar qabul qilindi. Binobarin, ta’lim jarayonini innovatsion tashkil etishda pedagogik diagnostika metodlaridan foydalanish strategiyalarini takomillashtirish orqali mamlakat ta’lim tizimida innovatsion g‘oyalarni keng tashkil etishga oid g‘oyalar va qarashlar tizimi tarkib topadi.

Pedagogik faoliyat ijodiy izlanishni talab qiladigan murakkab jarayondir. Pedagogikdiagnostika ijtimoiy hayotning ajralmas qismi bo‘lib, o‘qitish va tarbiyalash jarayoniga xizmat qiladi.

Pedagoglarning ta’lim oluvchilarni doimo kuzatib borishining o‘ziyiq tashxislash faoliyat hisoblanadi. Tashxislash axborotlarni ma’lum ko‘rsatkichlarni orqali yig‘ish mumkin.

Solishtirish- tashxislash jarayonning asosiy tayanch nuqtasi hisoblanadi. Biz hayotdagi har bir narsani kuzata turib, beixtiyor uni solishtiramiz. Ko‘rgan narsamizni o‘z tajribamizga moslab tahlil qilishni, unga baho berishni xohlaymiz. Shu maqsadda xotiramizdagi xuddi shundayyoki shunga o‘xshash kuzatishlarni esga olamiz. Faqat o‘z kuzatishlarimiz emas, balki o‘zgalar tomonidan o‘tkazilgan kuzatishlar ham tadqiqot klassifikatsiyasiga yordam berishi mumkin. Yangi kuzatishda solishtirishga asos yo‘q bo‘lsa, kuzatishimizda unga yaqinroq bo‘lgan kategoriyadan foydalanishga harakat qilamiz.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik jarayondagi xulqini kuzata turib, uning oldingi xulqi yoki hozirgi kundagi va o‘tmishdagi boshqa individning xulq-atvori bilan, kimningdir xulq haqidagi fikrlari bilan solishtiramiz. Bu pedagogik diagnostikada individual, ijtimoiy yoki ob`yektiv solishtirish normalari deb hisoblanadi. Ta’lim jarayonida esa ta’lim oluvchining ma’lum o‘quv predmeti bo‘yicha o‘zlashtirganlik darajasini boshqa ta’lim oluvchining o‘zlashtirishi, malaka talablari asosida kompetensiya orttirishdagi salohiyati asosida o‘rganamiz.

Bo‘lajak o‘qituvchining individual o‘zlashtirishini quyidagicha tenglashtirishimiz mumkin:

Boshqa ta’lim oluvchilarning ijtimoiy solishtirma natijalari bilan = norma
Shu bo‘lajak o‘qituvchining oldingi natijalari bilan = individual solishtirmanorma
Qo‘yilgan o‘quv maqsadlari (mezonlar) bilan =predmet solishtirmanorma
Fanda solishtirma o‘lchovlar uchun foizli darajali shkala keng ishlatiladi.

Bu shkala yoshlarning aniq bir holatga muvofiq guruh ichidagi holatini belgilaydi.

Masalan, bo‘lajak o‘qituvchi u yoki bu qobiliyati bo‘yi charanjirovkada 75-o‘rinni egalladi, bundan ko‘rinadiki u sinfdagi 75 foiz bo‘lajak o‘qituvchi bilan teng yoki ulardan ortiq natijaga erishgan, Faqat 25 foiz o‘smir va o‘spirinlar undan ham yuksak yoki unga teng natijaga erishgan.

Foizli shkalada o‘rinni aniqlash uchun kumulyativ o‘zgaruvchanlikni bilish zarur. T-kattalik va intellect koeffitsientini aniqlashda chekinish shkalalari keng qo‘llaniladi.

T-kattalik shkalasi «standartnorma» hisoblanadi.

“Bu shkala test o‘tkazishda keng qo‘llaniladi. Bu shkala uchun o‘rtacha kattalik 50 va standart chekinish 10 bo‘lib hisoblanadi” [1].

Tahlil. Tahlilda kuzatishning solishtirma klassifikatsiyasidan chetga chiqiladi. Bu tahlil sabablarni aniqlashga, ichki mexanizmlar ichidagi xususiyatlarni belgilashga xizmat qiladi.

Bashorat qilish. Pedagogik diagnostika doirasida pedagog solishtirish va tahlilda olingan natijalarni boshqa sharoit va kelajakda qo‘llashga majbur. Agar bo‘lajak o‘qituvchi muayyan bilimni qo‘shimcha darsda o‘zlashtirgan bo‘lsa, pedagog kuzatuv olib borib, bo‘lajak o‘qituvchining shu natijani dars mashg‘ulotida ham takrorlay olishga qodirligini, o‘zlashtirish lozim bo‘lgan o‘quv materialini idrok etishga tayyor ekanligini aniqlay olishi kerak.

Ushbu o‘rinda Ushinskiyning “Inson tarbiya vositasi sifatida asarida pedagogik diagnostikani rejalashtirish, tashkil etish, interpretatsiya qilish singari to‘rt asosiy tashxislashning yopiq izchilligi sifatida tushuniladi” [5].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva Sh.A.ta’lim diagnostika.-T: Fan va axborot texnologiyalari, 2010.-278 bet.
2. Abduqodirov A.,Pardaev A. Pedagogiktexnologiyalargaoid atamalarningizohlilug‘ati. – T: Fan vatexnologiyalar,2012. – 44 b.
3. Андреев В.И. Педагогическая диагностика.Учебный курс для творческого саморазвития. Казань. Центр инновационных технологии. 2012. – 608с.
4. Asadov Yu.M.,Turdiev N.,Akbarova S.,Temirov D.,Babadjanov S.ta’lim oluvchilarda kompetensiyalarning shakllanganligini diagnostika va korreksiyalash metodikasi.-T: Qori Niyoziy nomidagi O‘ZPFITI bosmaxonasi,2016.-158 b.
5. Ушинский К.Д. Человек как предмет воспитания. Опыт педагогической антропологии. [http: // dugward. Ru / library / pedagog/ ushinskiy chelovek.](http://dugward.Ru/library/pedagog/ushinskiychelovek)